

**REEXPRESSING INTERPRETABLE PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE NOVEL
“BYGONE DAYS” BY ABDULLA KADIRI AND ITS ENGLISH TRANSLATIONS*****Elmurod Umrzokovich Tursunov****Senior Lecturer, Department of Theoretical Aspects of the English Language No. 1**Uzbekistan State University of World Languages**E-mail: tursunovelmurod03@gmail.com**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: phraseological units, idioms, phraseological combinations, phraseology, translation methods.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: The linguistic study of Abdulla Kadiri's creative evolution reflects his attempts to align the lexical layer saturated with words and phrases borrowed from the Arabic, Persian and Tajik languages of that period with the usual (spoken) language of the people. As well, the passion for preserving the purity of the Uzbek language is evident in the works written by the author, the elegance of expressive means and stylistic devices and the appropriate and skillful use of words and phrases. In the novel “Bygone Days” phraseological units, proverbs, chatchwords and a number of culture-specific vocabulary have not lost their significance and are still used in the spoken language. Instead of the term phraseological units, in some cases, the terms phraseological unit, stable (unchangeable) word combination, phrase, idiom, phraseme, phraseological combination and phraseological combination are also used in the literature. The study shows the English re-expression of phraseological units with equivalents exploited in the novel “Bygone Days”, the problems that arise during the translation process and the methods of eliminating these problems by comparing the English translations of the work.

**“O‘TKAN KUNLAR” ROMANI VA UNING INGLIZCHA TARJIMALARIDA
MUQOBILI BOR FRAZEOLIGIZMLARNING BERILISHI*****Elmurod Umrzoqovich Tursunov****Ingliz tili nazariy aspektlari №1 kafedrasida katta o‘qituvchisi*

O'zbekiston davlat jahon tillari Universiteti
E-mail: tursunovelmurod03@gmail.com
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: frazeologik birliklar, idioma, frazeologik chatishma, frazema, tarjima usullari, turg'un birliklar.

Annotatsiya: Abdulla Qodiriyning ijodiy evolyutsiyasining lingvistik tadqiqi muallifning XX-asr o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga hamda o'sha davr arab va fors-tojik tilidan o'zlashgan so'z va iboralar bilan to'yingan leksikologik qatlamini xalq jonli tiliga yaqinlashtirishga urinishlarini namoyon etadi. Shuningdek, o'zbek tili sofligini saqlab qolishga bo'lgan ishtiyoqi abid tomonidan yozilgan asarlarida, badiiy-uslubiy vositalarning bejirimligi va so'z va so'z iboralaridan o'rinli va mohirlik bilan qo'klangani bilan izohlanadi. Adib qalamiga mansub "O'tkan kunlar" romanida frazeologik birliklar, maqollar, hikmatli so'zlar va qator milliy xoslangan so'zlar hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va jonli so'zlashuv tilida qo'llanib kelinmoqda. Frazeologik birliklar atamasi o'rnida, ayrim hollarda, adabiyotlarda frazeologik birlik, turg'un (o'zgarimas) so'z birikmasi, ibora, idioma, frazema, frazeologik birikma va frazeologik chatishma atamalari ham ishlatiladi. Tadqiqotda "O'tkan kunlar" asarida qo'klangan muqobilga ega frazeologik birliklarni inglizchada qayta ifodalash, tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar va mazkur muammolarni asarning inglizcha tarjimalarini qiyosiy tahlilga tortish asnosida bartaraf etish usullari misollar yordamida ko'rsatib berilgan.

ПЕРЕФРАЗИРОВАНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В РОМАНЕ АБДУЛЛЫ КАДЫРИ "МИНУВШИЕ ДНИ" И ЕГО АНГЛИЙСКИХ ПЕРЕВОДАХ

Элмурод Умрзокович Турсунов

*Старший преподаватель кафедры теоретических аспектов английского языка №1
Узбекский государственный университет мировых языков*

E-mail: tursunovelmurod03@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: фразеологические единицы, idioma, фразеологическое сочетание, фразеология, способы перевода, устойчивые единицы.

Аннотация: Лингвистическое исследование творческой эволюции Абдуллы Кадыри отражает его попытки приблизить лексический слой, насыщенный словами и выражениями,

заимствованными из арабского и персидско-таджикского языков того периода, к живому языку народа. В произведениях автора также проявляются страсть к сохранению чистоты узбекского языка, изящество художественно-стилистических средств, уместное и умелое использование слов и фраз. В романе писателя «Минувшие дни» фразеологизмы, пословицы, крылатые слова, ряд изречений не утратили своего значения и по-прежнему используются в живой разговорной речи. Вместо термина «фразеологизм» в литературе, в некоторых случаях, употребляются также термины «фразеологическая единица», «устойчивое словосочетание», «словосочетание», «идиома», «фразема», «фразеологическое сочетание». В исследовании представлены примеры английского переосмысления эквивалентных фразеологических единиц, использованных в произведении «Минувшие дни», проблемы, возникающие в процессе перевода, и методы преодоления этих проблем путем сравнения английских переводов произведения.

Frazeologik birlik deganda u orqali anglashilgan ko'chma (xosila) ma'no so'zga qaraganda murakkabroq tuzilishga egaligi, ammo funksional jihatdan so'zga va, shunga mos ravishda, gap bo'lagiga yaqin bo'lgan semantik birlik tushuniladi. Frazeologizmlar bilan bir qator tilda matal, aforizm, maqol va idiomalar ham mavjud. Frazeologizm termini tilda frazeologik birlik, turg'un (o'zgarimas) so'z birikmasi, ibora, idioma, frazema, frazeologik birikma va frazeologik chatishma (Salomov, 1983) deb ham yuritiladi. Tadqiqotda takrorlanishni oldini olish maqsadida frazeologizm termini o'rniga frazeologik birikma, ibora, frazema, frazeologik birlik atamallari qo'llanildi.

“O'tkan kunlar” romani leksikasi frazeologik birliklarga shu qadar bo'yki, bu unda istifoda etilgan iboralar hozirgi o'zbek adabiy tili va xalq jonli so'zlashuv nutqida keng qo'llanishi, voqelikni aniq va betakror tarzda aks ettirishi, davr ijtimoiy-madaniy turmush tarzini yaqqol gavdalantirishi hamda personajlar ichki kechinmalarini to'laqonli namoyon etishi bilan izohlanadi.

Romanda ko'kka ko'tarmoq, kuchlab tushmoq, sabz(i) urmoq, ixlosi tom bo'lmoq, ixlos qo'yimoq, xush ko'rmoq, o'pka qilmoq, lom-mim demoq, qamchidan qon tommoq, chehrasi buzilmoq, og'iz jo'plamoq (juftlamoq), keti uzilmoq, quloq solmoq, yo'l bermoq, sukutga yubormoq, yo'lga solmoq, qulog'iga yetkazmoq, ko'z yummoq, ishtahasi ochilmoq, xayol surmoq, ko'ngli tilamoq, mashaqqat chekmoq, tongg'a qoldirmoq (dog'da qoldirmoq), fikrini ost-

ust qilmoq, qon to'kmoq, xon ko'tarmoq, ipning uchini topmoq, terisiga sig'may, ko'nglini ko'tarmoq kabi ko'plab frazeologik birikmalar qo'llanganki, ularni I. Tuxtasinov, O. Mo'minov, A. Hamidov (2017), Mark Riz (2019) va Kerol Ermakovalar (2019) tomonidan amalga oshirilgan inglizcha o'girmalarida qanday darajada aks ettirilganini kuzatish katta qiziqish uyg'otadi. Shunisi e'tiborliki, "O'tkan kunlar" romanida muallif xalqchilik va milliylik ruhini turli uslubiy vosita va leksik usullar yordamida yoritib berganini kuchlab tushmoq (ma'qullamoq ma'nosida), ixlosi tom bo'lmoq va chehrasi buzilmoq singari xalq jonli tiliga doir so'z va iboralarda ko'rish mumkin. O'zbek tilining frazeologik lug'atida (Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., 2022) ixlos leksemasi asosiy (tayanch) komponenti bo'lgan ixlosi baland, ixlos qo'ymoq, ixlosi qaytmoq, ixlosini qaytarmoq frazemalari berilgan, ammo ixlosi tom bo'lmoq frazeologik chatishmasi ko'rsatilmagan. Mazkur ibora ishonchi komil bo'lmoq, to'liq ishonmoq ma'nolarini ifodalab, adibning naqadar xalq jonli tilini boyitishga va o'zbek adabiy tilini xalqona tilga yaqinlashuviga uringanidan dalolat beradi. Bundan tashqari, kayfiyati buzilmoq yoki kayfiyatni salbiy tomonga o'zgarishini anglatuvchi, obrazli tamsiliy ramzi (asosiy komponenti) chehra leksemasi orqali hosil qilingan chehrasi buzilmoq frazeologik chatishmasi ko'ngli qorarmoq, afzoyi buzilmoq, asabi buzilmoq va afti burishmoq frazemalariga sinonimik frazeologik birikma hisoblanib, adibning so'z tanlash va vaziyat taqozosi bilan uslubiy qochirimlarni yaratish mahoratini yana bir bor namoyon etadi. Masalaning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, yuqorida misol tariqasida keltirilgan frazeologik birliklarning barchasi ham inglizchada aynan ekvivalenti, teng qiymatli muqobili bor iboralar hisoblanmaydi. I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarovlar qalamiga mansub "Tarjima nazariyasi" nomli o'quv qo'llanmada bir tildagi frazeologik birliklarning boshqa tildagi shunday birliklarga mos kelishining uch usuli mavjud ekani ta'kidlanadi (G'afurov I., Mo'minov O., 2012). Bular a) frazeologik birliklarning to'liq mos kelishi; b) qisman moslashishi; c) moslashishning mavjud emasligi. Frazeologizmlarni bir tildan boshqasiga o'girishning to'rt usuli ko'rsatiladi:

1. Frazeologik birliklarning grammatik, semantik va uslubiy jihatdan moslashtirish orqali;
2. Tarjima matnida asliyatdagi frazeologik birlikka mos semantic ekvivalentlarni qidirib topish;
3. Kalkalash orqali;
4. Tasviriy (bayon) tarjima orqali.

Romandan bir parcha keltiramiz. Tadqiqotimizda asarning 2004-yilgi "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan chop etilgan nashridan foydalanildi.

Huvalboriy ... ko'zimizning nuri, belimizning quvvati, hayotimizning mevasi o'g'limiz mulla Otabekka yetib ma'lum va ravshan bo'lg'aykim, alhamdulillah biz duogo'y padaringiz, mushtipar onangiz va yaqin do'stlaringiz munda Xaq taoloning hifzi himoyatida sihat va salomat

bo‘lib ko‘z nurimizning duoyi jonini subhi shom, balki aladdavom rabbulolamindan rajo va tamanno etmakdamiz .(Qodiriy, 2004)

Asliyat matni I.Tuxtasinov, O.Mo‘minov va A.Hamidovlar talqinida:

May God the Creator send this a priceless gift to the lights of our eyes, the strength of our loins, the fruit of our life, our son mullah Otabek, praises be to Allah, I am your advocate, the Fatjer and Creator, feeble your motherand your close friends have been living under the protection of God, healthy and well all day and night, praying for the welfare of the creator, of light of our eyes. (Tukhtasinov, 2017)

Asliyat matni Mark Riz o‘girmasida:

By the name of the creator ... Let it be known and clear to the light of our eye, power of our loins, fruit of our life, our son Mullah Otabek. Tanks God, we, your supplicant father, gentle mother, and close friends, the under the protection of Allah, are in good health and praying for the light of our eyes, day and night continuously, with hopes and wishes. (Reese M., 2019)

Asliyat matni K. Ermakova tarjimasida:

To the priceless gift granted us by the Almighty creator, light of our eyes, power of our loins, fruit of our days, to our son mullah-Atabek, we hereby inform you that – Allah be praised – I, your father and mediator, intercessor before the Creator, your fragile mother, and close friends remain in good health and fortune under the protection of the Most High. Night and day, we beseech the Creator that he might favour the apple of our eyes. (Ermakova, 2019)

Odatda, milliy urf-odatlar, muayyan xalq vakillari tomonidan qo‘llanadigan murojaat shakllarini bir tildan boshqasiga o‘girishda tarjima matnida aynan mos keladigan muqobili qidirib topiladi yoki analogiya usulidan foydalaniladi. Aniqllovchi + aniqlanmish (ko‘zim(iz)ning nuri) munosabatidagi so‘z birikmasi qolipidagi mazkur iboraga inglizchada the apple of my (our) eye(s), the light our eyes iboralari ekvivalent frazeologik birikma hisoblanadi. Bunda o‘zbek va ingliz tillaridagi ushbu iboraning har ikkala komponentlari (1-tayanch komponenti ko‘z, 2-yordamchi komponenti – nur) to‘liq mos kelishi hamda teng qiymatli ekvivalent ekani ko‘zga tashlanadi. E’tibor bering, ko‘z ↔ eye, nur ↔ light (apple). Shunday qilib, har uchala tarjima variantlarida ko‘zimizning nuri iborasi o‘z muqobilini topgan, deb hisoblaymiz. Bundan ko‘rinadi, insonning o‘zi sevib ardoqlagan kishisiga nisbatan murojaati tarjimada ishtirok etayotgan har ikkala tillarda ayni bir xil tamsiliy obraz orqali gavdalantirilishi ayrim umuminsoniy qadriyatlarining mushtarakligidan darak beradi. Yana bir misolga e’tibor qaratamiz. Asarning II-bo‘lim, “Xayrixoh qotil” nomli faslida shunday jumla keltiriladi:

Kumush otasining oldig‘a qanot yozg‘an kabi yugirib, uning soqolini silar ekan, so‘radi:

– Sizga zarar bermadilanni, otajon?

– Yo‘q, qizim. (Tuxtasinov, 2017)

Asliyotning I.Tuxtasinov, O.Mo‘minov va A.Hamidovlar tomonidan amalga oshirilgan tarjimasi:

Kumush as if at her wings flew toward her father and embraced him, stroking his beard, then asked:

–“You were not charged there, my father?”

–“No, daughter.” (Tuxtasinov, 2017)

Asliyot matni Mark Riz talqinida:

Kumush ran to her father, spreading her arms for a hug like a bird spreading its wings. Stroking his beard, she asked, “Did they harm you in any way, dear Father?”

–“No, my daughter.” (Reese, 2019)

K. Ermakova tarjimasi:

As if on wings, Kumush flew to meet her father and, embracing him, she stroked his beard.

“You are unharmed, Father?” she asked.

“Yes, daughter, I am.” (Ermakova, 2019)

Tahlilga torilgan jumla tarkibidagi qanot yozmoq (qoqmoq) frazeologik birligi shaylanmoq, intilmoq (O‘TIL, 2005) ma‘nolarini ifodalab, insonning biror ish-harakatni bajarishga shoshilishi metaforik o‘xshatish asosida qushning qanot qoqishiga o‘xshatiladi. Qizig‘i shundaki, mazkur ibora dunyoning ko‘plab tillari ham aynan ekvivalentiga ega frazeologik birlik sanaladi. Masalan, inglizchada to spread wings (qanot yozmoq, yoymoq, qoqmoq), rus tilida распластывать крылья (qanot yoymoq, yozmoq) shaklida qo‘llaniladi. Ushnu frazeologik birlik tarjima matnida muqobili bor FBlardan biri bo‘lib, ikki komponentdan tarkib topgan (qanot yozmoq). Komponentlarining biri obrazli (tamsiliy) asosi qanot leksemasi orqali hosil qilinib, ingliz va rus tillarida ham shu so‘z qatnashadi (o‘zb., qanot ↔ ing., wings, ↔ rusch., крылья). Parchaning har uchala inglizcha tarjimalari chog‘ishtirma tahlili shuni ko‘rsatadiki, barcha tarjimonlar frazeologik birlikni tarjima matnida aynan ekvivalenti bilan berishga harakat qilganlar. I.Tuxtasinov, O.Mo‘minov va A.Hamidovlar qanot yozg‘an kabi jumlasini at her wings tarzida qayta ifodalagan, inglizchada qanot yozmoq frazeologik birikmasi on wings ko‘rinishida beriladi. Bu esa tarjimonlarning predlogli oborotni noto‘g‘ri qo‘llaganini ko‘rsatadi. K. Ermakova esa iborani aynan ekvivalenti bilan ifodalash usuli orqali on wings tarzida o‘g‘irgan. K. Mark qanot leksemasi obrazli asosi bo‘lgan uch komponentdan iborat qanot yozg‘an kabi iborasini like a bird spreading its wings tarzida besh komponentli ibora shaklida o‘g‘iradi. Mazkur iborani tarjima amalga oshirilayotgan tilda aynan o‘xshshi bilan berish usuli yordamida as if to spread her wings shaklida tarjima qilishni taklif beramiz.

Romanda frazeologik omonimiyadan ham foydalanilganiga ham guvoh bo‘lamiz. Omonim iboralar bir xil shaklga ega, ammo qarama-qarshi ma’no ifodalovchi iboralarga aytiladi. Asarda Zaynab va Kumush o‘rtasidagi kundoshlik munosabati yaqqol aks ettirilib, “Kundash-kundashdir” yurag(i)ga o‘t yoqmoq frazeologik birligi ana shunday frazeologik omonimiyani yuzaga keltirgan:

Unga nima bo‘lsa ham ikki kundash o‘rtasidan ancha gaplar o‘tkani bir daraja ma’lum bo‘lib, Zaynabning yolg‘on-yashiq gaplar bilan Kumush yuragiga o‘t yoqqanini payqadi. (Qodiriy, 2004)

Mazkur jumladagi ajratib ko‘rsatilgan yurag(i)ga o‘t yoqmoq frazeologik birligi I.Tuxtasinov, O.Mo‘minov va A.Hamidovlar tomonidan quyidagicha o‘giriladi:

He guessed that two rivals had had a long talk and noticed that Zaynab telling a lie made Kumush lose her heart. (Tuxtasinov, 2017)

Yuqoridagi asliyat misoli M. Riz tarjimasida:

Zainab had managed to kindle a fire in Kumush’s heart through some subterfuge, but, so as to not diminish the passion now pervading his heart, (Reese, 2019)

Asliyat matni K. Ermakova tarjimasida:

It seems Zainab spun a yarn to Kumush and sparked her jealousy. (Ermakova, 2019)

O‘zbek tili frazeologik lug‘atida yurag(i)ga o‘t yoqmoq frazemasiga ta’sir etib ruhlantirmoq, safarbarlik kayfiyatini yuzaga keltirmoq (Rahmatullayev, 2022) deb ta’riflangan. Bu ushbu frazeologik birlikning ijobiy ma’no hosil qilishidir. Frazeologik birlik inson qalbida adovat, xusumat va bezovtalik paydo qilish kabi salbiy konnatativ bo‘yoqdorlikka ham ega. Tahlil qilinayotgan jumlada frazeologik birlik ayni shu salbiy ma’noda qo‘llanmoqda. O‘zbek millatiga mansub so‘zlashuvchi tafakkurida inson qalbida qo‘qqisdan bezovtalik, isyon hamda tug‘yonning hosil bo‘lishi, ko‘nglida birdaniga notinchlikni yuzaga kelishi inson yuragiga o‘t yoqishga o‘xshatiladi. Shu sababli, tilimizda tamsiliy (tayanch) obrazi yurak leksemasi orqali yasalgan yuragi bezillamoq, yuragiga sovuq suv sepmoq, yuragi titramoq, yuragi qaynamoq, yuragini tirnamoq, yuragi o‘ynamoq, yuragiga o‘t yoqmoq, yuragi orqasiga tortmoq, yuragi yorilmoq, yuragi taka-puka bo‘lmoq, yuragiga daxshat solmoq, yuragi qinidan chiqmoq, yuragiga siqtirmoq, yuragi ezilmoq, yuragi qaynamoq, yuragi uzilmoq, yuragi achimoq, yuragini ochmoq, yuragini uyush(tir)moq, yuragi urmoq kabi frazeologik birlikmalar berilgan bo‘lib, ular, asosan, ot (yurak so‘zining III-shaxs birlik shakli) + fe’l ko‘rinishidagi grammatik tuzilishga ega bo‘lib, inglizchaga ham aynan heart (yurak) leksemasi tayanch obraz sanalgan otli birlikma shaklidagi FB tarzida o‘giriladi. I.Tuxtasinov, O.Mo‘minov va A.Hamidovlar tomonidan taklif etilgan tarjimada mazkur ibora to lose one’s heart (ruhiyatini tushirmoq) shaklida o‘girilgan bo‘lib, frazeologik birlikdan anglashilgan emotsionallik, ekspressivlik o‘z muqobilini topmagan. K. Ermakova ushbu iborani sparked her jealousy (rashkini qo‘zg‘adi) tarzida o‘girgan. Fikrimizcha, asliyatda aks etgan

konnativ ma'no tarjimada o'z muqobilini topmagan. Xalqimizda azaldan ko'p xotinlikning salbiy oqibatlarik "kundosh boshingda – tosh, ko'zingda – yosh, kundosh xotin kunda og'riq, kundoshing bo'lsa-bo'lsin, kundoshbachchang bo'lmasin, kundoshli uyda kunda urush (janjal), kundoshli uyda to'zim yo'q, kundoshlik – ko'ngil g'ashlik, kundoshlikka kun tug'mas, tug'sa ham, butun tug'mas, kundoshning kuli ham kundosh, kundoshning kuli ham urishar, kundoshning oti qursin, saksovulning o'ti qursin" (Mirzayev, 2005) kabi maqollar, matallar va himatli so'zlarda o'z ifodasini topgan. M.Riz esa ushbu frazeologik chatishmani to kindle a fire in Kumush's heart shaklida ramziy obrazi o't (olov) asosida tuzilgan to kindle a fire in somebody's heart (kimningdir yuragiga o't yoqmoq) ekvivalenti orqali o'zi xos muqoblini topgan, deb hisoblaymiz.

Romanning I-bob, "Bek oshiq" nomli faslida quyidagi jumla uchraydi:

Otabek bu gapni onglamadi shekillik, Hasanalining yuziga ko'tarilib qaradi-da, yana ko'zini bir nuqtaga tikib qoldi. (Qodiriy, 2004)

Asliyat matni I.Tuxtasinov, O.Mo'minov va A.Hamidovlar tarjimasida:

Otabek seems not to listen to him. He raised his eyes and looked at Hasanali and again looked intently (Tuxtasinov, 2017). Tarjimaning mazmuni: Otabek uni eshitmayotgandek edi. U ko'zlarini ko'tarib, Hasanaliga qaradi va yana atayin qaradi. (Tarjima muallifdan)

Asliyat matni tarjimasi Mark Riz talqinida:

Otabek looked up at Hasan Ali's face, not comprehending the question; his eyes were fixed at some point in the distance (Reese, 2019). Tarjimaning mazmuni: Otabek savolni anglamaganlikdan Hasanalining yuziga qaradi. Uning ko'zlari bir lahzaga uzoqlarga qadalgan edi. (Muallif tarjimasi)

Yuqoridagi asliyat misoli K. Ermakova talqinida:

It was as though Atabek were hearing without comprehending; he looked up, glanced at Khasanali and then went back to gazing into space. (Ermakova, 2019) Tarjimaning mazmuni: G'oyoki Otabek (Hasanali tomonidan berilgan savolni) e'tiborsiz eshitar edi; u Hasanaliga qarab qo'ydi va keyin yana avvalgidek o'yga toldi. (Muallif tarjimasi)

Asardagi parchada keltirilgan ko'z tikmoq iborasi metafora usulida ma'no ko'chirishga asoslanib, tikilib qarab qolmoq, o'yga tolmoq kabi ma'nolarni beradi. Mazkur frazema polisemantik ibora sanalib, a) tikilib qaramoq, o'yga tolmoq, b) umidvor bo'lib qaramoq, c) hirs, shahvat bilan qaramoq singari birdan ortiq ko'chma ma'no komponentlariga ega. Kontekstdan anglashiladiki, ushbu frazeologik polisemiyada iboraning aynan birinchi ma'nosi nazarda tutilmoqda. Bundan tashqari, iboradan anglashilgan xosila ma'no qolmoq ko'makchi fe'li yordamida yanada bo'rttirilgan.

3.1-jadval

Asliyat matnidagi ko'z tikmoq frazeologik birikmasining tarjima variantlari

Asliyat	I. Tuxtasinov, O. Mo‘minov, A. Hamidovlar tarjimasi	Mark Riz talqinida	Kerol Ermakova o‘girmasi
... ko‘z tikib qoldi	... looked at and again looked intently	... his eyes were fixed at some point in the distance	... glanced at ... gazing into space

Frazeologik birikmalar barqaror tuzilishga ega bo‘lib, semantik o‘ziga xosligi bilan ajralib turadigan so‘z birikmasidir. Frazeologizmlar leksik birliklardan yuqori gapdan quyi sathda turuvchi til hodisasidir. Frazeologik birliklarda quyidagi mushtarak xususiyatlar ustunlik qiladi (Бабкин, 1970): a) birikmaning turg‘unligi; b) birikmaning ko‘chma (majoziy) ma’no ifodalashi; c) ekspressiy-emotsional holatni yuzaga keltirishi; d) semantik butunligi. Qardosh tillardan tarjima qilish amaliyotida tarjimada ishtirok etayotgan tillardagi leksik, fonetik va grammatik jihatdan tillararo o‘xshashlik nuqtayi nazaridan frazeologik birikmalarni ekvivalent yo‘l bilan o‘girish, aynan o‘xshashi bilan berilgan frazeologizmlardan foydalanish, leksik va grammatik varianti bilan tarjima qilish usullari qo‘l keladi, ammo gap umuman turli til oilalariga mansub tillar o‘rtasida amalga oshiriladigan tarjima haqida borganda, tarjima matnida frazeologik jihatdan valenti, aynan muqobil frazeologik ekvivalentini topish amrimahol. I.Tuxtasinov, O.Mo‘minov va A.Hamidovlar talqinida mazkur frazema ... looked at and again looked at intently (qaradi va yana atayin qaradi) tarzida o‘girilgan. Sh. D. Abdullayev ta’kidlaganidek, “... frazeologizmlardan asarning badiiy xususiyatini oshirish, xarakterlarni obrazli ifodalash, nutqning ta’sirchanlik darajasini oshirish keng foydalaniladi.”(Abdullayev, 2007) Tadqiq etilayotgan frazeologik birlik (ko‘z tikmoq) insonning muayyan ruhiy yoki hissiy holat ta’sirida ma’nosiz, maqsadsiz o‘ylanib qolishi, o‘yga tolishi va atrof-munitda sodir bo‘layotgan voqelikdan uzoqlashish, so‘zlovchi bilan kechayotgan munosabatning uzilishini anglatadi. Shu sababli, bu kabi ma’no silsilasini kuchaytirib ko‘rsatish maqsadida adib atayin jumlagi bir nuqtaga so‘z birikmasini kiritgan. Yuqoridagi tarjima variantida esa bunga tamomila zid ravishda intently (atayin) leksemasi qo‘llanib, frazemadan hosil qilingan ekspressivlikni yo‘qqa chiqaradi. Boshqa tomondan, inglizchada ko‘z tikmoq iborasiga muqobil bo‘la oladigan to gaze off into space, to gaze into space, to stare blankly, to gaze vacantly, to be lost in thought, to daydream, to zone out, to space out, to glaze over, to look vacantly, to stare blankly, to stare into the void, to gaze into nothingness kabi teng qiymatli frazeologik birliklar bo‘la turib, uni to look at (... ga qaramoq) predlogli fe‘l bilan o‘girilganiga hamda shakliy va takribiy muvofiqlik buzilganiga guvoh bo‘lamiz. M. Riz tarjimasida esa ushbu ibora grammatik transformatsiya usuli orqali faol nisbatdagi gapni majhul nisbatga o‘zgartirish orqali (o‘zb., ko‘z tikib qoldi ↔ ing., his eyes were fixed) tarzida tarjima qilingan. Bunda garchi asliyatdagi

frazemaga shakliy muqobili topilmagan bo'lsada, uning obrazli ramziy asosi (ko'z leksemasi) saqlab qolinib, mazmuni to'liq qayta ifodalangan. K. Ermakova o'girmasida mazkur frazema to gaze into space (ko'z tikmoq, o'yga tolmoq) shaklida o'z ekvivalentini topgan, deb hisoblaymiz. Yana bir e'tiborga molik nuqta shundaki, frazeologik birikma orasiga qo'yilgan bir nuqtag'a so'z birikmasi personajning e'tibori aynan biror muayyan nuqtaga qaratilganini emas, balki uning jismoniy holatidagi o'ziga xos jihatni ta'sirchan, obrazli ifodalash uchun xizmat qilgan. Tarjimada ayni shu so'z birikmasi in the distance (M. Riz o'girmasida), at the fixed position yoki shu kabi o'xshash tarjima variantlari bilan emas, balki leksik kompressiya usli yordamida ko'zini bir nuqtag'a tikib qoldi frazeologik chatishmasi ichida to gaze into nothingness tarzida beriladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, roman tarkibida istifoda qilingan muqobili bor frazeologik birliklar muallifning personajlar ishki kechinmalari, voqealar rivoji, xalq turmush-tarzini yaqqol va uslubiy jihatdan betakror ochib berishiga xizmat qilgan. Shunisi e'tiborliki, adib o'zbek milliy adabiyotida aks etgan maqol, metal, ibora va hikmatli so'zlardan tashqari xalq jonli tilida qo'llanib kelayotgan ko'plab frazeologik birliklardan ham foydalangan. Tarjimashunoslik nuqtai nazaridan frazeologik birliklar o'girmasida o'zbek va ingliz tillarida to'liq yoki qisman mos keladigan frazeologik birliklar juda kam uchraydi. Asarning har uchala tarjimalari semantik-uslubiy hamda leksik-komponent tahliliga tayanib, M. Riz hamda K. Ermakova tomonidan amalga oshirilgan tarjimalarda FBlar asliyatga ancha yaqin tarjima qilinganiga guvoh bo'lamiz.

Foydalingan adabiyotlar ro'yhati:

1. Salomov, G. (1983). Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: O'qituvchi
2. Rahmatullayev, S. (2022). O'zbek tili frazeologik lug'ati. Toshkent: Go'fur G'ulom.
3. Ermakova C. (2019) Days gone by. Paris: Nouveau Monde editions.
4. G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N. (2012) Tarjima nazariyasi. –Toshkent: Tafakkur bo'stoni.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. (2005) Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
6. Qodiriy A. (2004). O'tkan kunlar. Toshkent: Sharq.
7. Reese M. (2019) Bygone Days by Abbullah Qodiriy. USA: Middletown.
8. Tukhtasinov I.M., Muminov O.M., Khamidov A.A.. (2017). The Days Gone By" by A. Kadiriy. Toshkent: Mashhur-press.
9. Бабкин А. М. (1970) Русская фразеология, ее развитие и источники. Ленинград: Изд-во Ленингр. ун-та.